# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR HOKIMINING
# Q A R O R I

2023 - yil «27» - yanvar 50-14-0-Q/23 Toshkent shahar hokimligi

## Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari haqida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5666-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 20-fevral), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 102-son qarori ("O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009-yil, 15-son, 186-modda), Toshkent shahar hokimining 2021-yil 15-dekabrdagi "Yer solig'i to'lash stavkasi bo'yicha zona chegaralarining sxemasi va tavsiflarini tasdiqlash haqida"gi 551-14-0-Q/21-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 30-dekabrdagi 01/26-19/1122-son, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 30-dekabrdagi 02/24/10-5709-son, Moliya vazirligining 2022-yil-30 dekabrdagi 02/04-32/15-sonli kelishuvini hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2023-yil 4-yanvardagi 05/1-sonli xatini inobatga olib,

**Q A R O R Q I L A M A N :**

1. Toshkent shahridagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga;

ijara to‘lovini (ijara to‘lovining tayanch stavkasini) hisoblab chiqish tartibi va qo‘llanadigan koeffitsientlar 2-ilovaga;

Toshkent shahrining markaziy qatnov ko‘chalari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi (I.Kadirov) davlat mulkini ijaraga berish yuzasidan davlat mulkini balansda saqlovchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan avval tuzilgan shartnomalarni xatlovdan o‘tkazish, ularni hisobga qo‘yish va shartnomalarni belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirishni ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil
8-apreldagi 102-son qarorining 31-moddasiga muvofiq, davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llanilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5666-sonli Farmoniga asosan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish bo‘yicha savdolar “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Belgilansinki, davlat mulkini balansida saqlovchilarning mansabdor shaxslari ularning tasarrufida bo‘lgan foydalanilmayotgan davlat mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi

Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli berilishi uchun shaxsan javob beradilar.

4. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (M.Azimova):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

5. Toshkent shahar hokimining 2022-yil 7-fevraldagi “Toshkent shahridagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2022-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari haqida”gi 106-14-0-Q/22-sonli qarori (5-bandidan tashqari) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o’rinbosari X.Shakirov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchi** **Raxmonov B.S.**

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 27 yanvardagi
50-14-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

## Toshkent shahridagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

| T/r | Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi | 2023-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari |
|---|---|---|
| **Ishlab chiqarish** | | |
| 1 | Yoqilg‘i ishlab chiqarish | 17 480 |
| 2 | Kimyoviy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari) | 17 480 |
| 3 | Neft-kimyo sanoati | 17 480 |
| 4 | Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati | 17 480 |
| 5 | Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish | 17 480 |
| 6 | Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi | 14 140 |
| 7 | Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati | 14 140 |
| 8 | Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish | 17 480 |
| 9 | Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati | 17 480 |
| 10 | Mashina va uskunalarni ta’mirlash | 17 480 |
| 11 | Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari | 17 480 |
| 12 | Ichimliklar ishlab chiqarish | 17 480 |
| 13 | Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 17 480 |
| 14 | Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 17 480 |
| 15 | Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 56 690 |
| **Qurilish sanoati** | | |
| 16 | Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik | 14 140 |

| | | |
|---|---|---|
| 17 | Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan) | 56 690 |
| 18 | Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan) | 74 750 |
| 19 | Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari | 34 960 |
| 20 | Shlakoblok ishlab chiqarish | 17 480 |
| 21 | Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish | 56 690 |
| 22 | Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish | 40 100 |
| **O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati** | | |
| 23 | Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati | 17 480 |
| 24 | Yog‘ochni qayta ishlash sanoati | 17 480 |
| 25 | Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati | 17 480 |
| **Yengil sanoat** | | |
| 26 | To‘qimachilik sanoati | 17 480 |
| 27 | Tikuvchilik sanoati | 17 480 |
| 28 | Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati | 17 480 |
| 29 | Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari | 17 480 |
| **Oziq-ovqat sanoati** | | |
| 30 | Oziq-ovqat sanoati (baliq, go‘sht, yog‘-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari) | 17 480 |
| 31 | Go‘sht mahsulotlari sanoati | 17 480 |
| 32 | Sut mahsulotlari sanoati | 34 960 |
| 33 | Baliq mahsulotlari sanoati | 17 480 |
| 34 | Tegirmonchilik sanoati | 17 480 |
| 35 | Kombikorm (omuxta yem) sanoati | 14 140 |
| 36 | Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 17 480 |
| 37 | Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari | 17 480 |
| **Sanoatning boshqa tarmoqlari** | | |
| 38 | Tibbiyot sanoati | 17 480 |
| 39 | Poligrafiya sanoati | 56 690 |

| | | |
|---|---|---|
| 40 | Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo‘yash, yuvish va matolarni qayta ishlash | 41 970 |
| **Qishloq xo‘jaligi** | | |
| 41 | O’simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun | 11 468 800 |
| 42 | Issiqxona xo‘jaligi | 10 000 |
| 43 | Chorvachilik va parrandachilik | 14 140 |
| 44 | Baliqchilik (shu jumladan sun’iy maydon) 1 gektar uchun | 11 468 800 |
| 45 | Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun | 6 862 000 |
| 46 | Veterinariya xizmatlari | 17 480 |
| 47 | Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar | 17 480 |
| 48 | O‘rmon xo‘jaligi (shu jumladan bog‘lar) 1 gektar yer maydoni uchun | 11 468 800 |
| **Transport va aloqa** | | |
| 49 | Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to‘xtash joylari va garaj) | 45 700 |
| 50 | Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari) | 20 600 |
| 51 | Avtomobillarni yuvish | 67 200 |
| 52 | Avtomobillarga yoqilg‘i quyish (benzin, dizel) | 61 200 |
| 53 | Avtomobillarga yoqilg‘i quyish (gaz qo‘yish shaxobchalari) | 70 300 |
| 54 | Elektromobillarni quvvatlash shaxobchasi | 30 600 |
| 55 | Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari | 41 900 |
| 56 | Pochta aloqasi | 38 500 |
| 57 | Kuryerlik aloqasi | 45 700 |
| 58 | Elektr-simli aloqa | 45 700 |
| 59 | Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida) | 148 200 |
| **Savdo va umumiy ovqatlanish** | | |
| 60 | Ulgurji savdo | 70 300 |

| | | |
|---|---|---|
| 61 | Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do‘konlari | 169 200 |
| 62 | Chakana savdo | 105 500 |
| 63 | Umumiy ovqatlanish | 70 300 |
| 64 | Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud) | 67 200 |
| 65 | Kitob do‘konlari | 6 700 |
| 66 | Lombardlar | 84 900 |
| **Xizmat ko‘rsatish** | | |
| 67 | Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo‘jalik buyumlarini ijaraga berish joylari | 70 300 |
| 68 | Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko‘rsatish (nusxa ko‘chirish xizmati) | 77 300 |
| 69 | Kompyuter o‘yinlarini tashkil etish | 115 950 |
| 70 | Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq munosabatlar | 77 300 |
| 71 | Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari | 70 300 |
| 72 | Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari | 105 500 |
| 73 | Mehmonxona xo‘jaligi | 77 300 |
| 74 | Umumiy yashash joylari | 44 800 |
| 75 | Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari | 42 600 |
| 76 | Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta’mirlash ustaxonasi | 56 500 |
| 77 | Hammomlar | 120 400 |
| 78 | Saunalar va basseynlar | 245 700 |
| 79 | Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari | 39 200 |
| **Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot** | | |
| 80 | Sog‘liqni saqlash | 56 400 |
| 81 | Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya) | 66 400 |
| 82 | Sayyohlik va dam olishni tashkil etish | 56 400 |

| | | |
|---|---|---|
| 83 | Fitobar | 24 400 |
| 84 | Madaniy ko‘ngilochar markazlar (bilyard, o‘yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar) | 77 300 |
| 85 | Jismoniy tarbiya va sport | 24 400 |
| 86 | Dorixonalar | 56 400 |
| 87 | Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do‘konlari | 56 100 |
| 88 | Ijtimoiy-dorixonalar | 39 200 |
| **Ta’lim** | | |
| 89 | Oliy va o‘rta-maxsus ta’limi ma’lumotli kadrlarni tayyorlash | 49 500 |
| 90 | O‘quv kurslarini tashkil etish | 59 500 |
| 91 | Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish | 35 400 |
| 92 | Bolalar umumta’lim maktablari (nodavlat ta’lim muassasalari uchun) | 29 750 |
| 93 | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida umumiy ovqatlanish | 35 150 |
| 94 | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiy ovqatlanish | 27 140 |
| 95 | Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta’lim muassasalari uchun) | 17 480 |
| 96 | Madaniyat va san’at | 98 600 |
| 97 | Ko‘rgazmalar | 47 100 |
| 98 | Madaniyat va dam olish bog‘lari | 49 500 |
| 99 | Botanika bog‘lari va zooparklar | 49 500 |
| 100 | Televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari | 49 500 |
| 101 | Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari | 176 000 |
| 102 | Fan va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish | 34 900 |
| 103 | Avtomaktablar | 60 600 |
| **Moliya-kredit faoliyati** | | |
| 104 | Moliya, kredit va pensiya ta’minoti (sug‘urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari) | 70 300 |
| 105 | Auditorlik faoliyati | 54 000 |

| | | |
|---|---|---|
| 106 | Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo‘yicha maslahatxonalar | 70 300 |
| 107 | Bank faoliyati | 105 500 |
| **Faoliyatning boshqa turlari** | | |
| 108 | Sug‘urta va notarial xizmatlar | 70 300 |
| 109 | Sud va yuridik xizmat muassasalari | 49 500 |
| 110 | Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar | 49 500 |
| 111 | Jamoatchilik birlashmalari | 17 480 |
| 112 | Omborxonalar | 70 300 |
| 113 | Davlat tashkilotlariga ofis | 34 900 |
| 114 | Xususiy tashkilotlarga ofis | 119 700 |
| 115 | Arxiv xizmati | 22 400 |
| 116 | Tahririyat va nashriyotlar | 39 200 |
| 117 | Metallolom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulotlarini to‘plash joylari | 39 200 |
| 118 | Turar joy-kommunal xo‘jaliklari | 39 200 |
| 119 | Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish | 70 300 |
| 120 | Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari | 43 800 |
| 121 | Laboratoriyalar | 34 900 |
| 122 | Turli xizmat turlari to‘lovlari (paynet) | 176 000 |
| 123 | Madaniy meros ob’ektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do‘konlari | 112 800 |
| 124 | Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shaxobchalari | 84 900 |
| 125 | Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va x.k) | 42 600 |
| 126 | Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar) | 112 800 |
| 127 | Bankomatlar | 1 057 000 |
| 128 | Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish | 58 600 |

*Izoh:*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2012-yildagi №02/1-74-son topshirig‘iga asosan, yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qismlar va muassasalar hududida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari uchun ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining “nol” stavkasi qo‘llaniladi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 12.06.2013-yildagi №02/02-1-74-son topshirig‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining sport zallaridan foydalanishda O‘zbekiston Basketbol Federatsiyasining yozma murojaatiga asosan, davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining nol stavkasi qo‘llaniladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.08.2013-yildagi №02/107-118-sonli topshirig‘iga asosan, 2013-yilning 15-iyulidan boshlab “Adolat” SDPning Toshkent shahar va Toshkent viloyati Kengashlari, shuningdek, “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun Partiya balansidagi Toshkent shahar, Chilonzor tumani, “Sharq Tongi” ko‘chasi, 23-uy manzilida joylashgan davlat mulki obyektidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilangangan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.07.2014-yildagi №02/107-2670-son topshirig‘iga asosan 2014-yilning 1-avgustidan boshlab, “Tadbirkorlik va ishbilarmonlik harakati” O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri (shu jumladan Mirobod tumani) Kengashlari, shuningdek, “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi balansidagi tegishli davlat mulki obyektlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilangan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.02.2016-yildagi №18-Yu-14-7/1694-sonli topshirig‘iga asosan 2016-yilning 1-martidan boshlab, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi tahririyati uchun Toshkent shahri,

Mirobod tumani, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy manzilida joylashgan davlat mulki obyektidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori qo‘llanilishi topshirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017-yildagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi №834-son qarori muvofiq, davlat mulki, shu jumladan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi a’zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara to‘lovining “nol” stavkasi asosida beriladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017-yildagi №14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan, Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan, aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to‘lovining “nol” stavkasi asosida ajratiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2018-yildagi №609-20-sonli topshirig‘iga asosan, kelgusida Mudofaa vazirligi tomonidan vazirlik tizimidagi o‘z faoliyatini iqtisodiy mustaqillik, o‘zini o‘zi ta’minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradigan davlat unitar korxonalariga, shuningdek, vazirlikning boshqa tarkibiy bo‘linmalariga binolarni, inshootlarni, joylarni, asbob-ukunalarni, mebellarni va boshqa mol-mulkni ijara shartnomasi asosida vaqtinchalik foydalanishga berishda binolardan, inshootlardan, joylardan, asbob-ukunalardan, mebellardan va boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining nol stavka belgilanadi.

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 27 yanvardagi
50-14-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

## Ijara to‘lovini (ijara to‘lovining tayanch stavkasini) hisoblab chiqish tartibi va qo‘llanadigan koeffitsientlar

Binolar va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini (ijara to‘lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko),

bunda:

Ts - bir yilga bir kv. metr uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi;

Es - bir yilga bir kv. metr uchun eng kam stavka;

Kz - hududiy zona koeffitsienti;

Kq - qurilish turi bo‘yicha koeffitsent (alohida turgan bino, qo‘shimcha qurilgan bino, binoning yuqori qismi, cherdak, boloxona, yarim yerto‘la, yerto‘la);

Kh - tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsenti;

Ko - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsenti (asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo‘llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

**Ijara haqi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar:**

1. Toshkent shahar hokimining 2021-yil 15-dekabrdagi “Yer solig‘i to‘lash stavkasi bo‘yicha zona chegeralarining sxemasi va tavsiflarini tasdiqlash haqida”gi 551-14-0-Q/21-son qarorida belgilangan chegaralarga asosan, hududiy  zonalar koeffitsientlari (Kz):

| Zonalar | Qo‘llaniladigan koeffitsientlar |
|---|---|
| 1-zona | 4,73 |

| | |
|---|---|
| 2- zona | 3,81 |
| 3- zona | 2,89 |
| 4- zona | 1,97 |
| 5- zona | 1,15 |

## 2. Binoning qurilish turi bo‘yicha koeffitsientlar (Kq):

| Qurilish turi | Qo‘llaniladigan koeffitsientlar |
|---|---|
| alohida turgan bino | 1,0 |
| binoning qismida joylashgan va/yoki taqab qurilgan | 0,8 |
| yarim yerto‘la, yerto‘la | 0,6 |
| cherdak, bolaxona | 0,5 |
| reklama vositalari uchun bino va inshootning fasad qismi | 0,2 |

## 3.Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh):

| | Qo‘llaniladigan koeffitsient |
|---|---|
| yer maydoni mavjud bo‘lganda | 0,3 |

## 4.Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Kt):

| Qulaylik | Qo‘llaniladigan koeffitsient |
|---|---|
| metro stantsiyasidan 200 metr radius oralig‘ida joylashgan | 0,8 |
| markaziy qatnov ko‘chalarida joylashgan bino-inshootlar | 0,7 |

| | |
|---|---|
| ikkinchi darajali qatnov ko‘chalarida joylashgan | 0,6 |

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 27 yanvardagi
50-14-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

## Toshkent shahridagi markaziy qatnov ko‘chalari ro‘yxati*

| | |
|---|---|
| 1. | Abdulla Qodiriy ko‘chasi |
| 2. | Abdurauf Fitrat ko‘chasi |
| 3. | Abay ko‘chasi |
| 4. | Amir Temur shoh ko‘chasi |
| 5. | Asaka ko‘chasi |
| 6. | Afrosiyob ko‘chasi |
| 7. | Ahmad Donish ko‘chasi |
| 8. | Aeroport hududi |
| 9. | Beruniy ko‘chasi |
| 10. | Beshyog‘och ko‘chasi |
| 11. | Beshqayrag'och ko‘chasi |
| 12. | Bobur ko‘chasi |
| 13. | Bog‘ishamol ko‘chasi |
| 14. | Bodomzor yo‘li ko‘chasi |
| 15. | Bunyodkor shoh ko‘chasi |
| 16. | Buxoro ko‘chasi |
| 17. | Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi |
| 18. | Buyuk Turon ko‘chasi |
| 19. | Gavhar ko‘chasi |
| 20. | Darxon ko‘chasi |
| 21. | Do‘rmon yo‘li ko‘chasi |
| 22. | Zarafshon ko‘chasi |
| 23. | Zargarlik ko‘chasi |
| 24. | Zarqaynar ko‘chasi |
| 25. | Ziyo ko‘chasi |
| 26. | Ziyolilar ko‘chasi |
| 27. | Zulfiyaxonim ko‘chasi |
| 28. | Islom Karimov ko‘chasi |
| 29. | Istiqbol ko‘chasi |
| 30. | Istiqlol kuchasi |
| 31. | Iftixor ko‘chasi |
| 32. | Qatortol ko‘chasi |
| 33. | Katta Xirmontepa ko‘chasi |
| 34. | Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi |

| | |
|---|---|
| 35. | Qorasaroy ko‘chasi |
| 36. | Qorasuv ko‘chasi |
| 37. | Qoratosh ko‘chasi |
| 38. | Qumariq ko‘chasi |
| 39. | Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi |
| 40. | Labzak ko‘chasi |
| 41. | Lokomotiv ko‘chasi |
| 42. | Lutfiy ko‘chasi |
| 43. | Matbuotchilar ko‘chasi |
| 44. | Maxtumquli ko‘chasi |
| 45. | Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi |
| 46. | Mirobod ko‘chasi |
| 47. | Muqimiy ko‘chasi |
| 48. | Mustaqillik maydoni |
| 49. | Mustaqillik shoh ko‘chasi |
| 50. | Muxammad Yusuf ko‘chasi |
| 51. | Muxtor Ashrafiy ko‘chasi |
| 52. | Navoiy ko‘chasi |
| 53. | Nazarbek ko‘chasi |
| 54. | Nukus ko‘chasi |
| 55. | Nurafshon ko‘chasi |
| 56. | Oybek ko‘chasi |
| 57. | Oqqo‘rg‘on ko‘chasi |
| 58. | Oqtepa maydoni |
| 59. | Olmazor ko‘chasi |
| 60. | Osiyo ko‘chasi |
| 61. | Ohangaron ko‘chasi |
| 62. | Parkent ko‘chasi |
| 63. | Sag‘bon ko‘chasi |
| 64. | Samarqand Darvoza ko‘chasi |
| 65. | Sebzor ko‘chasi |
| 66. | Sodiq Azimov ko‘chasi |
| 67. | Talabalar ko‘chasi |
| 68. | Taras Shevchenko ko‘chasi |
| 69. | Temur Malik ko‘chasi |
| 70. | Turkiston ko‘chasi |
| 71. | Usta Shirin ko‘chasi |
| 72. | Farg‘ona yo‘li ko‘chasi |
| 73. | Farobiy ko‘chasi |

| | |
|---|---|
| 74. | Farhod ko‘chasi |
| 75. | Fidokor ko‘chasi |
| 76. | Furqat ko‘chasi |
| 77. | Chilonzor ko‘chasi |
| 78. | Choshtepa ko‘chasi |
| 79. | Cho‘ponota ko‘chasi |
| 80. | Sharof Rashidov ko‘chasi |
| 81. | Shastri ko‘chasi |
| 82. | Shahrisabz ko‘chasi |
| 83. | Shimoliy Olmazor ko‘chasi |
| 84. | Shota Rustaveli ko‘chasi |
| 85. | Sho‘rtepa ko‘chasi |
| 86. | Yunus Rajabiy ko‘chasi |
| 87. | Yangi Sergeli ko‘chasi |
| 88. | Yangi Yunusobod ko‘chasi |
| 89. | Yangishahar ko‘chasi |
| 90. | Yahyo G‘ulomov ko‘chasi |
| 91. | Mirzo Tursunzoda ko‘chasi |
| 92. | Yangi Sergeli ko‘chasi |
| 93. | Qo‘rg‘ontepa ko‘chasi |
| 94. | Shokir ariq ko‘chasi |
| 95. | Qipchoq ko‘chasi |
| 96. | Toshkent xalqa aylanma yo‘li ko‘chasi |

*Izoh: Ko - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo‘llari bo'ylab joylashganlari).